



104. Massa va massa birliklari

massa
kilogramm




1. Nima og'ir? Bitta qulupnaymi yoki bitta olmami?
Bitta bananmi yoki bitta shaftolimi?
Bitta limonmi yoki bitta olchami?




Narsalarning massalari kilogrammlarda o'lchanadi.
Bir kilogramm — 1 kg.



2. Supermarketdan
5 kg sabzavot,
5 kg mevalar va
1 kg un sotib olindi.
Xaridning umumiy
massasi qancha?



3. Jismning massasi tarozi
yordamida o'lchanadi.



Sizning fikringizcha,
qaysi tarozi massani
to'g'ri ko'rsatadi?
Nima uchun?



4. Supermarketning kassasida hisobni yaxshi biladigan odamlar ishlaydi. Siz ham tez va to'g'ri hisoblashni o'rganing!

$54 + 3 = \square$	$40 + 20 = \square$	$69 - 5 = \square$
$47 - 4 = \square$	$50 + 30 = \square$	$23 + 3 = \square$
$80 - 50 = \square$	$70 - 50 = \square$	$85 - 2 = \square$



5. Quyidagi ifodalardan nimani bilib olish mumkin? Rasmlar asosida masalalar tuzing va ularni yeching.



$$5 \text{ kg} + 6 \text{ kg}$$

$$6 \text{ kg} - 5 \text{ kg}$$



6. Tarvuzning massasini toping.



7. Chizing va bo'yang.
